

## **TOSHKENT SHAHRI EKKLEZIONIMLARI**

**Zoitova Shoxista Asqarovna**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi*

+998903287136, [zoitova\\_sh@mail.ru](mailto:zoitova_sh@mail.ru)

***Annatsiya.** Ushbu maqolada toponimlarning turi bo‘lgan ekklezionimlar haqida so‘z yuritiladi. Ekklezionimlarning nomlanish xususiyatlari tahlil qilinib, undagi tabiiy an’anaviy nomlar, ya’ni xalqona toponimlar til toponimiya tizimidagi rasmiy aralashuvlarsiz tabiiy holda yo‘l-yo‘lakay paydo bo‘lganligi va sun’iy toponimlarning paydo bo‘lishi haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘z:** toponim, antroponim, tabiiy toponim, rasmiy toponim, ekklezionimlar xramonim*

***Аннотация.** Эта статья об эkkлезионимах, которые являются разновидностью топонимов. Анализируются номинационные особенности эkkлезионимов и говорится, что естественные традиционные названия, то есть народные топонимы, возникли естественным путем, без официального вмешательства в систему языковой топонимии, и появляются искусственные топонимы.*

***Ключевые слова:** топоним, антропоним, природный топоним, официальный топоним, эkkлезионимы, хрононим.*

***Annotation.** This article is about ecclesionyms, which are a type of toponyms. Naming features of ecclesionyms are analyzed, and it is said that natural traditional names, that is, folk toponyms, appeared naturally without official interventions in the language toponymy system, and artificial toponyms appear.*

***Key words:** toponym, anthroponym, natural toponym, official toponym, ecclesionyms, chrononym.*

Onomastika sohasining zamonaviy rivojlanish bosqichida ilgari o‘rganilmagan atoqli otlarning turlariga e’tibor berila boshlandi. Bularning orasida diniy marosimlarni o‘tkazish uchun to‘planadigan joy nomlari alohida o‘ringa ega. Bu joylar ekstralingvistik sabablarga ko‘ra toponomist olimlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Keyingi paytda diniy marosimlar o‘tkaziladigan joy nomlari onomatolog-tadqiqotchi olimlarning ilmiy qiziqishlarining faollashiga sabab bo‘ldi.

Toponim so‘zi negizida shakllangan geografik obyektlar, ya’ni joy ma’nolarini o‘rganib, biror bir yerga atab qo‘ygan nom qanday qilib paydo bo‘lgan va nima uchun aynan shunday ataladi kabi savollarga javob izlaydi. Toponimika muayyan bir hududda yashaydigan xalqlarning tarixini, etnografiyasini o‘zida aks ettiradi, ularning tili va madaniyatini o‘zida mujassam qiladi. Toponimika geografik nomlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi; til tarixi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya sohalari bilan uzviy aloqador bo‘lgan tilshunoslikning alohida bo‘limidir[1.5].

Toponimlarning asosiy vazifalari: bir xil, bir tipli o‘rinlarni, obyektlarni, hududlarni alohida, yakka holda ajratib atash va shu orqali ularni bir-biridan

farqlashga xizmat qilishdir. Toponamist olimlarning ilmiy qarashlari asosida joy nomlari bir qancha qisimlarga bo‘lib o‘rganiladi. Zamonaviy onomastika sohasi ushbu tizimda *ekklezionimlar* holatini aniqlashni dolzarb mavzu deb hisoblaydi.

*Ekklezionimlar* - urbanomika, ya’ni shahar ichidagi joy nomlarining bir turi (tipi) bo‘lib, diniy marosimlarni o‘tkazish uchun to‘planadigan joylar, ibodat qiluvchi, sig‘inuvchi obyektlarning atoqli otlari kiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ekklezionimlarga ibodatxonalar, masjidlar, cherkov, monastirva boshqa atoqli otlarni kiritish mumkin[1.92].

Rus tadqiqotchisi N.V.Podolskayaning “Rus onomastik terminlari” lug‘atida “har qanday diniy marosim o‘tkaziladigan joyning nomi, to‘g‘rirog‘i Ollohga sig‘inish joyi, jumladan, masjid, cherkov, monastir nomlari - ekklezionimlardir”, - deb ta’rif berilgan[3.243]. Shu bilan birga tadqiqotchi bu nomlarni toponimlar deb tasniflaydi.

Shunday qilib, rus tadqiqotchisi Y.P.Arinina diniy obyektlarning o‘ziga xos noyobligini va jamiyatdagi umumiy onomastik tizimidagi aniq o‘rnini tushuntiradi. Ekklezionimlar “o‘ziga xos bo‘lmagan nomlanishga, semantik va strukturaviy xususiyatlar ega, ularni tushunmaslik ushbu sohada bilimning yetishmaslida deb ta’kidlaydi[4.215-222].

Bundan tashqari, onomastik birliklar orasidagi alohida ichki va tashqi munosabatlarga mos bo‘lgan tabiiy nomlar tuzilishi nazarda tutadi. Uzoq vaqt davomida diniy obyektlarning nomlarini ilmiy adabiyotlarda urbanonimiya qatoriga qo‘shish munozarali mavzu bo‘lib qoldi. A.M.Mezenkoning "Belorusiya urbanonimiyasi" mavzusiga oid ishida ham "cherkovlar, ibodatxonalar, monostirlar va boshqa ibodatgohlar shahar ichidagi obyektlarning, ya’ni urbanonimlarning bir turi sifatida ko‘rish kerakligini ta’kidlaydi [5.167].

Ekklezionimlar urbanonimning boshqa bir turlari kabi o‘z tuzilishi va semantik ma’nosiga ega. Shuningdek, diniy obyektlar nomlari tuzilishiga ko‘ra urbanonimlarning bir turi sifatida terminlar ro‘yxatiga kiradi.

Shahar ichidagi diniy obyektlarning nomlanish tamoyili boshqa obyektlar singari quydagilarni o‘zida aks ettiradi: ijtimoiy-subyekt sifatida shaxs fazilatlarini hamda ularning xususiyatlarini, shuningdek, mavhum tushuncha bilan bog‘liq holda aks etadi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi diniy obyektlarning nomlari o‘ziga xosligi bilan urbanonimik obyektlarning bir turi deb hisoblashimizga imkon beradi. Shuningdek, ma’lum bir nomlanishiga ega bo‘lgan *ekklezionimlar* bor. Ekklezionimlarga maqsadli nom berish va bu nomlarni xalqning leksikoniga kiritish



kabi belgilari bilan sun’iy toponimlarning yorqin namunasidir. Ekklezionimlarning bunday xususiyati ergonimlarga yaqindir.

Ijtimoiy o‘zgarishlar talabidan kelib chiqib barcha sohalarda o‘zgarish bo‘lgani kabi, diniy e’tiqod va diniy ishlarni yo‘lga qo‘yish maqsadida yurtimizda bir muncha ishlar qilindi. Bugungi kunda Toshkent shahrida bir yuz yigirmadan ortiq masjid foliyat ko‘rsatadi. Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash kerakki, diniy bag‘rikenlik Toshkent aholisining muhim fazilatlaridan biridir. Poytaxtda Islom dini bilan birgalikda boshqa ko‘pgina noislomiy diniy konfessiyalar mavjud. Bu masjidlar va cherkovlarning nomlanishida o‘ziga xos xususiyatga ega. Bunga misol qilib quydagi masjid va cherkovlarning nomlarini keltiramiz: Chosh-Tepa jome masjidi, Hasanqori jome masjidi, Do‘mbirobod jome masjidi, Qatortol (mahalliy) jome masjidi, Ko‘zi ojizlar jome masjidi, Muxsimxon-to‘ra jome masjidi, Tinchlik jome masjidi, Bo‘tabuva jome masjidi, Oltinxon-to‘ra jome masjidi, Ubay ibn Ka'b jome masjidi, Katta Qozirobod jome masjidi, Nosirxon jome masjidi, Novza jome masjidi, Sobitxon hoji jome masjidi;

Minor jome masjidi, Omina jome masjidi, Mirza Yusuf jome masjidi, Muhammad Nosir hoji jome masjidi, Hasanboy jome masjidi, Kulol-qo‘rg‘on jome masjidi, Masjidul-xayr jome masjidi, Yunusobod oqtepa jome masjidi, Umar ibn Xattob jome masjidi, Yunusobod jome masjidi, Kamoliddin Orif al-Buxoriy jome masjidi; Labi zax jome masjidi, Fayzullaxo‘ja o‘g‘li Murodhoji, Hazrati Bilol jome masjidi, Mahkam ota jome masjidi, Mahkamboy hoji ota jome masjidi, Burhoniddin Marg‘iloniy jome masjidi, Abu Hurayra jome masjidi, Abdulxamid hoji jome masjidi, Mirbobo ota jome masjidi, Hazrati Ali jome masjidi, Beshqayrag‘och jome masjidi, Aziz ota jome masjidi, Abu Hanifa jome masjidi, Mahammad Umar o‘g‘li Zokir jome masjidi, Ko‘kcha Oqtepa jome masjidi, Said Vaqqos ota jome masjidi, Hazrati Umar jome masjidi, CHo‘pon ota jome masjidi, Abdulla ibn Mas‘ud jome masjidi; Qora Soqol ota jome masjidi, Xuton jome masjidi, Alibek jome masjidi; Chimir ota jome masjidi, Ibrohimboy va Orifjonboy (mahalliy) jome masjidi, Ismatillo hoji (mahalliy) jome masjidi, Safaboy ota jome masjidi, Mevazor (mahalliy) jome masjidi, Ibrohim ota jome masjidi, Abu Bakr Qaffoli Shoshiy jome masjidi, Oxunguzar (mahalliy) jome masjidi, Siroj-solih jome masjidi, Hofiz Ko‘hakiy jome masjidi, Masjidus-salom (mahalliy) jome masjidi, Ahmadjon qori jome masjidi, Iskandar xo‘ja jome masjidi, Do‘stjonboy jome masjidi, Islomobod jome masjidi, To‘lqin Akrom o‘g‘li jome masjidi, Mirza G‘olib jome masjidi, Imomi Buxoriy jome masjidi, To‘xtaboy jome masjidi, Hazrati Imom jome masjidi, Imom at-Termiziy jome masjidi, Chimir ota jome masjidi; Rahimjon ota (mahalliy) jome masjidi, Rakat jome masjidi,

Yakkasaroy jome masjidi, Usmon bin Ma'zun jome masjidi; Valixo'ja o'g'li Norho'ja jome masjidi, Qo'ylik ota jome masjidi, Al - Badr jome masjidi; To'ra buva jome masjidi, Dorul Omon jome masjidi, Mulla Xolmirza jome masjidi, Oltin tepa jome masjidi, Oqqo'rg'on (mahalliy) jome masjidi, Shayx Ziyovuddinxon jome masjidi, Tepamasjid jome masjidi, Mulla Qosim jome masjidi, Avayxon jome masjidi; Abdulloh ibn Zubayr jome masjidi, No'g'oy qo'rg'on jome masjidi, Qo'shqo'rg'on jome masjidi, Ma'ruf-ota jome masjidi, Quddus sharif jome masjidi; Sulton hoji jome masjidi, Obidxon maxdum (mahalliy) jome masjidi, Oqlon jome masjidi, Islom - nuri jome masjidi, Firdavs jome masjidi, Baland jome masjidi, Mo'yi muborak Ukkosha jome masjidi, Kox ota buzruk jome masjidi, Yaxyo qori jome masjidi, Imom Xasan jome masjidi, Huvaydo jome masjidi, Oq-tunukali jome masjidi, Eshonguzar jome masjidi, Suzuk-Ota jome masjidi, Fotimai Zahro jome masjidi, Abdullox ibn Xuzofa jome masjidi, Xo'ja Alambardor jome masjidi, Dorussalom jome masjidi, Zangi-ota jome masjidi, Munavvar qori jome masjidi, Xoja Ahrori Valiy jome masjidi, Eshon-Boboxon jome masjidi, Shayx Zayniddin jome masjidi; Axmad Yassaviy jome masjidi, Imomi A'zam jome masjidi, Go'zal jome masjidi, Pul yemas ota jome masjidi, Ali ibn Abu Tolib jome masjidi, Al - Xudaybiya jome masjidi, «Islom ota» jome masjidi, Holid ibn Valid jome masjidi.

Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, diniy bag'rikenglik mamlakatimiz aholisining muhim fazilatlaridan biridir. Poytaxtda Islom dini bilan birgalikda boshqa ko'pgina noislomiy diniy konfessiyalar mavjud. Ular hech qanday to'siqlarsiz erkin faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Fikrimiz isboti sifatida quyida ushbu konfessiyalarning nomlarini keltiramiz: Rim-katolik cherkovi, Yevangel xristianlari cherkovi, Yevangel xristian-baptistlar cherkovi, Yettinchi kun xristian-adventistlar cherkovi, Arman apostollik cherkovi, Koreys protestant cherkovlari, "Iyegova guvohlari" cherkovi, Novoapostol cherkovi, Yevangel-lyuteranlar cherkovi, Budda ibodatxonasi, bulardan tashqari Toshkent shahrida O'zbekiston Bibliya jamiyati, Krishnani anglash jamiyati, Yahudiy diniy jamoalari va Baho'iy diniy jamoalaridir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqorida zikr etilgan masjidlar va cherkovlarning nomlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Ularni ilmiy jihatdan tahlil etish bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir. Chunki yoshlar ekklezionimlarning etimologiyasini bilishlari, o'rganishlari zarur. Bunday toponimik joy nomlarini ilmiy jihatdan o'rganish va bilish yoshlarning o'zligini anglashiga, milliy qadryatlarimizni tiklashga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. V.A.Nikonov.Vvedeniye v toponimiku. - M.: Nauka , 1965.165-b.



2. E.Begmatov, N.Uluqov O‘zbek onomastikasi terminlariningizohli lug‘ati. Namangan. 2006 y.
3. Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. 2-ye izd., pererab. i dop. /N.V. Podolskaya. - M., 1988.
4. Arinina Ye.P. Ekkleziionimiya kak raznovidnost naimenovaniy v russkoy onomasticheskoy sisteme / Ye.P. Arinina // Vestnik Samarskogo gosudarstvennogo universiteta. Gumanitarnaya seriya. - Samara, 2007. -
5. Mezenko A.M. Urbanonimiya Belorussii / A.M. Mezenko. - Minsk: Universitetskoye, 1991.